

KICHIK MAKTAB DAVRIDA PSIXIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.

Mamatov Shuhrat

Ter.DPI Boshlan'gich ta'lim fakulteti

1-bosqich talabasi

shuhratmirzayev@44gmail.com

Urinova Saodat

Ter.DPI Boshlan'gich ta'lim fakulteti

1-bosqich

Annonatsiya: Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning psixologik xususiyatlarining rivojlanishi haqida ma'lumot beriladi. Jumladan, maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarning maktabga berish jarayonida sodir bo'ladigan psixologik o'zgarishlar haqida ma'lumotlar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, bolalar psixologiyasi, intellekt, Krizis, ta'lim, psixik rivojlanish, bola psixikasi, xarakter xususiyatlari, psixik tasir, tarbiya, odob-axloq, o'sish.

Odatda psixologik adabiyotlarda keltirilishicha kichik maktab yosh davri 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, lekin bu yosh davrga ajratish prinsipi qat'iy va mutlaq degan fikr emas, albatta. Chunki, xalq ta'limi tizimida yuz beradigan ayrim o'zgarishlar bunga u yoki bu tarzda o'z ta'sirini o'tkazadi. Jumladan, bola maktab ta'limiga bog'chada tarbiyalanayotgan paytdan boshlab tayyorgarlik ko'ra boradi, buning uchun u, dastavval ta'lim tarbiya tomonidan o'quvchi shaxsi oldiga qo'yiladigan turli mazmundagi talablar bilan tanishadi, undan tashqari u fan asoslarini egallash uchun ham biologic jismoniy, ham psixologik jihatdan qariyb yetilgan, jismoniy va aqliy mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Kichik maktab yoshi bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi.

-Maktab ta'limiga psixologik tayyorgarlik va rivojlanishning ijtimoiy shart-sharoitlari,

-Maktabga moslashish,

-Kichik maktab yoshida yetakchi faoliyat,

-Kichik maktab yoshida asosiy psixologik yangilik,

Bolaning maktabda muvaffaqiyatli o'qishi ko'p jihatdan ularning maktabga tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Bolaning maktabda o'qishga tayyorligi quyidagilarni o'z ichiga oladi.

I Shaxsiy tayyorgarlik. Motivatsion sohaning rivojlanganlik darajasi. Bilishga qiziqishning mavjudligi. Ijtimoiy munosabatlar tizimida o'zining maxsus o'rni bolishiga intilish, muhim baholanadigan faoliyatni bajarish ya'ni o'quvchi bo'lish.

II Intellektual tayyorgarlik. Tevarak-atrofdagi ma'lumotlarni bilish, bilimlar zaxirasining mavjudligi. Idrok va ko'rgazmali-obrazl tafakkurning ma'lum darajada rivojlanganligi. Umumlashtirish darajasi — narsa va hodisalarni farqlash va umumlashtira olish ko'nikmasi. Nutqining ma'lum darajada rivojlanganligi; ko'pincha aqliy tayyorgarlik deyilganda bolaning dunyoqarashi, jonli tabiat, insonlar va ularning mehnatlari haqidagi bilimlari tushuniladi. Ushbu bilimlar maktab beradigan ta'limga asos bo'lishi mumkin, lekin so'z boyligi, ma'lum xatti-harakatlarni bajara olish layoqati bolaning maktabga aqliy tayyorgarligining asosiy ko'rsatkichi bo'la olmaydi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanadi. Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxs bo'lib shakllanishidagi o'rni nixoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni o'rganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashk kildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlar, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga buysunish ham yuklatilganligini xis eta boshlaydi. Oila a'zolarining bola o'quv faoliyati, yutuklari bilan qiziqayotganligi, shuningdek, uni nazorat qilayotganligi, unga qilinayotgan yangi muomala, munosabat uning ijtimoiy mavkei o'zgarganligini tula xis. Etishiga, o'ziga nisbatan munosabatining o'zgarishiga asos bo'ladi, Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taksimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga urgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslaxatlashadigan yangi bir urinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalar tez chalg'iydilar, uzoq vaqt diqqatlarini bir narsaga qarata olmaydilar ta'sirchan hamda emotsional bo'ladilar. Kichik maktab yoshidagi o'quvchi faolligining asosan uch xil ko'rinishi mavjud bo'lib ular jismoniy, ijtimoiy va psixik, faollikdir. Jismoniy faollik-sog'lom organizmning harakat qilishga bo'lgan turli mavjud to'siqlarni yengishda tabbiy

ehtiyojdir. Psixik faollik-bu normal rivojlanayotgan bolaning atrof olamdagi predmetlarni o'rganishidir. Kichik maktab yoshidagi bolalar kattalarning u haqidagi fikr va bergan baholariga qarab, o'zlariga o'zlari baho beradilar. Shuningdek, o'quvchining o'ziga-o'zi beradigan bahosi, turli faoliyatlaridagi muvaffaqiyatlariga ham bog'liq bo'ladi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'z-o'ziga beradigan baholari turlicha - yuqori, adekvat - mos yoki past bo'lishi mumkin. Bu yoshdagi bolalarda mavjud bo'lgan ishonuvchanlik, ochiqlik, tashqi ta'sirlarga beriluvchanlik, itoatkorlik kabi xususiyatlari ularni shaxs sifatida shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat yaratadi. Kichik maktab davrida boshqarishdan o'z-o'zini boshqarishga o'tishi nihoyatda muhimdir. Maktab ta'limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo'ladi. "Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'qish hisoblanad". Bolaning maktabga borishi, uning psixologik rivojlanishi va shaxsining shakllanishidagi o'rnini nihoyatda katta. Bola o'quv faoliyatida o'qituvchi rahbarligida inson ongining turli asosiy shakllarining mazmunini egallaydi va insoniy an'analar asosida harakat qilishni urganadi. O'quv faoliyatida bola o'z irodasini o'quv maqsadlariga erishish uchun mashq qildiradi. O'quv faoliyati boladan nutq, diqqat, Xotira, tasavvur va tafakkurini kerakli darajada rivojlanishini talab etgan holda, bola shaxsi rivojlanishi uchun yangi sharoitlarni yaratadi. Birinchi bor maktabga kelgan bola o'z atrofdagilari bilan psixologik jihatdan yangi munosabat tizimiga o'tadi. U hayotining tubdan o'zgarganini, unga yangi majburiyatlarni, nafaqat, har kuni maktabga borish, balki o'quv faoliyati talablariga bo'ysunish ham yuklatilganligini his eta boshlaydi. Kattalar bolalarni amaliy jihatdan o'z vaqtlarini to'g'ri taqsimlash borasida yaxshi o'qish, o'ynash, sayr qilish va boshqa narsalar bilan shug'ullanishga o'rgatadilar. Demak, oilada bola u bilan hisoblashadigan, maslahatlashadigan yangi bir urinni egallaydi. O'quvchining maktabdagi muvaffaqiyati uning keyingi psixik rivoji va shaxsining shakllanishida to'liq ijobiy asos bo'ladi. Bola insoniy munosabatlar tizimida ham alohida o'rin egallayotganini, ota-onasi, yaqinlari, atrofdagilari unga yosh boladek emas, balki o'z vazifalari, majburiyatlari bor bo'lgan, o'z faoliyat natijasiga ko'ra hurmatga sazovor bo'lishi mumkin bo'lgan alohida shaxs sifatida munosabatda bo'ladilar. Buning natijasida bolaning o'z-o'zidan oilasi, sinfi va boshqa jamoalardagi o'z o'rnini anglay boshlaganini ko'rish mumkin. Bu davrda bolaning "Men shuni xohlayman" motividan "Men shuni bajarishim kerak" motivi ustunlik qila boshlaydi. Maktabda birinchi sinfga kelgan har bir o'quvchida psixik zo'rliq kuchayadi, Bu nafaqat uning jismoniy salomatligida, balki xatti-harakatida ham, ya'ni ma'lum darajada qo'rquvni

kuchayishi, irodaviy faollikning susayishida namoyon bo'ladi. O'quvchi maktab ta'limiga keng ma'noda obektiv tayyor bo'ladi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga yetarli darajada taraqqiyot bosqichiga erishadi. Ushbu yoshdagi bola idrokining o'tkirligi, ravshanligi, sofliqi, aniqligi, uning qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi bilan boshqa yoshdagi o'quvchilardan ajralib turadi. Maktab ta'limiga tayorgarlik ko'rayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli ravishda barqaror ko'rinishga ega, deb hisoblash mumkin. Diqqatning xususiyatlari uning ro'lli va syujetli o'yin faoliyatlarida, rasm chizish va ko'rish, loy hamda plastilindan narsa yasashda, katta yoshdagi va tengqurlari nutqini idrok etishlarida, matematik amallarni bajarishlarida, hikoya tinglash va o'zi haqida tuzishda ham bevosita namoyon bo'ladi. Bu davrga kelib bola o'z diqqatini muayyan obyektga, narsa va hodisalarga yo'naltirishga, to'plashda va uni mustahkamlashda, hamda taqsimlashda malum darajada ko'nikmalarni egallagan bo'lib, o'z diqqatini boshqarish zarur paytda uni o'zi tashkil qilishga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli ajiyibotlarga, g'aroyibotlarga boy, voyaga yetgan kishini taajubga soladigan vaziyatlar va ma'lumotlarni puxta eslab qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga egadir. Shu davrgacha faqat kattalar yordamida u yoki bu axborotlarni egallab kelgan bo'lsa, endi u o'z xohish irodasi bilan, muayyan motivatsiyaga asoslangan holda ma'lumotni olishga, o'z oldiga yaqqol maqsad va aniq vazifa qo'yishga harakat qiladi. Bolaning muayyan taraqqiyot darajasiga erishganini uning xotirasi faolligi namoyish qiladi. Bola nutqining tuzilishi milliy til grammatikasi qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, rang-barang tushunchalarga boy, miqdor va ko'lam jihatdan har qanday kimsa bilan fikr almashish, muloqotga kirishish uchun mutlaqo yetarlidir. O'quvchi o'zi eshitgan narsalarni, voqelik haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri tushuna oladi, o'zida mavjud bo'lgan axborotlarni, taassurotlarni muayyan tartib bilan bayon qila oladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi, narsalarni tasdiqlaydi, yaqqollashtiradi, guruhlarga ajratadi, hukm chiqaradi. Yirik chet etva sobiq sovet psixologlari tadqiqotlarining ko'rsatishicha, oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalar tafakkurini jadal sur'atlar bilan rivojlantiradi, aqliy imkoniyatlarini ertaroq ishga tushishiga, ro'yobga chiqishiga imkon beradi. Chunonchi, bolalar matematik, fizik, ximik, politexnik, lingvistik tushunchalarni o'zlashtiradilar, mustaqil ravishda uncha murakkab bo'lmagan masalalar tuzadilar, oddiyroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, ko'pincha yaqqol obrazli xotiraga suyangan holda kognitiv faoliyatni tashkil etsa ham biron bir narsani

eslashda xotiraning boshqa turlarini sira istisno qilmaydi, aksincha, ta'lim shaxsdan so'z mantiq xotirasini taqazzo qiladi, ijodiy produktiv yo'l bilan bilimlarni egallashni talab qiladi. So'z-mantiq xotirasining mavjudligi matnning ma'nosiga tushunib esda olib qolish samaradorligini oshirishga keng imkoniyat yaratadi. Tajribalardan shu narsa malumki, bola ma'nosiz soz'lardan ko'ra ko'proq ma'nodor ilmiy tushunchalarni yaratish, tuzish va mustaxkamroq esda olib qolish xususiyatiga ega. O'quvchi o'zi eshitgan narsalarni, voqelik haqidagi ma'lumotlarni to'g'ri tushuna oladi, o'zida mavjud bo'lgan axborotlarni, taassurotlarni muayyan tartib bilan bayon qila oladi, aqliy faoliyat operatsiyalaridan o'rinli foydalanadi, narsalarni tasdiqlaydi, yaqqollashtiradi, guruhlariga ajratadi, hukm chiqaradi. Yirik chet etva sobiq sovet psixologlari tadqiqotlarining ko'rsatishicha, oqilona tashkil qilingan ta'lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalar tafakkurini jadal sur'atlar bilan rivojlantiradi, aqliy imkoniyatlarini ertaroq ishga tushishiga, ro'yobga chiqishiga imkon beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, kichik maktab yoshida bolada ko'pgina o'zgarishlar ro'y beradi. Bu o'quv faoliyati ko'nikmalarining shakllanishi, o'z-o'zini boshqarish, dunyoni bilish munosabati shakllanishi uchun senzitiv davr hisoblanadi. Bola o'z xulq-atvorini boshqara boshlaydi. Uyda va jamoat joylarida o'zini qanday tutish kerakligi haqida xulq-atvor normalarini aniq tushunadi, kattalar va tengdoshlari bilan shaxslararo munosabatda o'z emotsiyalarini boshqara oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

19. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9 SPECIAL), 418-421.

20. Ashurova, S., & Numonova, A. (2023). THE ROLE OF PSYCHOLOGY IN FORMING TEACHERS' PEDAGOGICAL ABILITY. Academia Repository, 2(11), 46-53.

244. 2. Ashurova Sh. F. (2023) SOG`LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO`G`RISIDAGI TASVVURLARNING SHAKLLANISHI "Zamonaviy ta`limda pedagogika va psixologiya fanlari <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8314/5746>

245. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-

PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10 SPECIAL), 32-35.

246. Ashurova Sh.F. .(2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL) <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/369> (52-56 p)

247. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.

248. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

249. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр–хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 67-71.21.

250. Karimova M.N. Ashurova.Sh.F, (2023) Professional ta'limda tahsil olayotgan qizlarni oilaviy hayotga tayyorlash va ularda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning psixologik asoslari. Educational Research in Universal Sciences. OAK. 369-373-b

251. qizi Imonova, MB (2023). MUSIQANING INSON HISSIYOTIGA TASIRI. National Scientific Research International Journal natijalari , 2 (3), 156-161.

252. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. *Общество и инновации*, 2(2), 222-227.

253. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.

254. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. *Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков*, 1(1), 447-453.

255. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya–qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. *Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика*, 1(1), 35-37.

256. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
257. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
258. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
259. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
260. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
261. Иманов, Б., & Иманова, М. Б. Қ. (2021). ДАРС ТУЗИЛМАСИ ВА УНГА ТАЙЁРГАРЛИК. Academic research in educational sciences, 2(5), 1158-1162.
262. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
263. Ньёматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.
264. Ne'Matullayeva, S. (2022). МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА О 'YIN ТЕРАПИЯСИНИ ҚО'ЛЛАШГА ОИД ҚАРАШЛАР. Science and innovation, 1(B4), 444-449.
265. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.
266. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O 'zbekiston milliy universiteti xabarлари, 1(6).
267. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).
268. Ньёматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.

269. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.

270. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati .Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43–46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>